

FRAZEOLGIK BIRLIKLAR KLASSIFIKATSIYASI

Gulyora Ismoilova

Farg`ona Davlat Universiteti

Magistratura bo`limi, Lingvistika: Ingliz tili 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada frazeologik birliklar haqida tushuncha va frazeologizmlar klassifikatsiyasi turli olimlar qarashlariga ko`ra tahlil qilingan. Ingliz va o`zbek tillaridagi misollar orqali nazariyalar isbotlashga harakat qilingan.

Kalit so`zlar: frazeologik birliklar, idioma, so`z birikmasi, fusiya, motivatsiya.

Lingvistika sohasida frazeologiya bu tasvirlovchi so`zlar masalan idiomalar, frazeologik fe'llar va leksikologik birliklarning boshqa turlarini o`rganuvchi fandır, bunda so'z birikmalarining tarkibi ma'nolari orqali umumiy ma'noni bilib bo'lmaydi, ular mustaqil birliklar sifatida qo'llaniladi. Masalan ingliz tilidagi *turn a blind eye* iborasi biror vaziyatni yoki ma'lumotni mensimalik, qabul qilmaslik ma'nosida ishlatiladi. So'zma so'z tushunadigan bo'lsak, ko`rga aylanish deb tarjima qilinadi. O'zbek tilida ham frazeologizmlar xuddi shunday, shunga qaramay ibora yoki frazalar har bir millatning madaniyatidan kelib chiqib yaratiladi va bitta qolipga tushadi. Masalan, oyog'ini qo'lga olmoq iborasi shoshilmoq ma'nosida ishlatiladi. Aslida iboralar bir so`zga teng bo'lolmaydi.

“Books of English idioms” kitobining muallifi Collinsning qarashlariga ko`ra bugungi kunda yozma va og`zaki nutqda qo'llanilayotgan standart ingliz tilidagi frazeologik birliklar bu tilni boyitadigan, bezaydigan va albatta ehtiyotkorlik bilan foydalaniladigan muhim va asoslangan element hisoblanadi.

Ehtiyotkorlik bilan foydalanish muhim ogohlantirishdir, chunki frazalar bilan to`lib toshgan nutq o`zining jozibasini yo`qotadi. Ular nutqqa tayyor holda olib kirilgan bo`lishiga qaramay, ularning ko`p takrorlanishi nutqning jilosini yo`qotadi

va eskilik sarqitiga aylanishiga sabab bo`ladi. Shuningdek bu so`z birliklarining o`zini ma`nosi orqali umumiy ma`noni tushunib bo`lmaydi.

Frazeologik birliklarning muhim xususiyatlari bular:

1. Motivatsiya ya`ni ma`no kamligi
2. Leksik componentlarning turg`unligi

Motivatsiya deganda nima tushunilyapti? Dastlab shuni aniqlab olamiz. Motivatsiya bu ma`no bo`lib, agar so`z birikmasi tarkibidagi so`zlar umumiy ma`noni bersa bu motivated deyiladi. Masalan, red tape so`zini qizil lenta deb tushunsak bu motivated ya`ni oddiy so`z birikmasi bo`lyapti, agar uni byurokratik metodlar deb tushunsak unda nonmotivated- frazeologik birikma yoki idioma bo`lyapti, uning ma`nosi boshqa ma`noga ko`chyapti. Quyida bir qator misollarni ko`rib o`tamiz.

A dark horse- to`gri ma`noda tarjima qilsak qora ot degani, idiomatik ma`nosi esa u haqida hech kim hech narsa bilmaydigan odam.

A white elephant –pulni keraksiz narsalarga sarflash

The green-eyed monster –rashkchi odam , Otelloga nisbatan berilgan ta`rifdan qolgan

To let the cat out of the bag – sir fosh bo`lishiga ruhsat berish

O`zbek tilida ham frazeologizmlarga nisbatan asosan ibora so`zi ishlatiladi. Xususan Shavkat Rahmatullayevning o`zbek tilining izohli frazeologik lug`atida ham ibora deb aytiladi va asosan fe`lli birikmalar keltiriladi.

Anqoning urug`i- topilishi qiyin bo`lgan narsa bo`lib, anqo faqatgina rivoyatlarda keltirilgan mevadir.

Bag`ri tosh- bemehr, iltifoti yo`q

Do`ppisi yarimta- beg`am, beparvo

Ko`z qorachig`i- yakkayu yagona va qadr qiymati yuksak

Misollardan ko`rinib turibdiki, mening fikrimcha, o`zbek tilida idiomalarni yarim motivatsiyalangan deb olsak bo`ladi. Chunki uning ma`nosini so`zlarning o`zini ma`nosidan kelib chiqib tushunish mumkin, ma`nosi butunlay boshqa narsaga ko`chmagan. Shuningdek ingliz tilidan iboralarni tarjima qilishda ham aynan

ekvivalentini topish qiyin. Umuman har bir frazaning kelib chiqishi, foydalanilishi o`sha til millatining madaniyatiga bog`liq bo`ladi.

Shunga ko`ra frazeologik birliklarni nomlash bo`yicha ham turli bahslar kelib chiqqan va terminlari ham turlicha topiladi: set expressions, phrases, set phrases, fixed word groups, collocations.

Ko`pchilik rus olimlari akademik Vinogradov tomonidan tanishtirilgan Phraseologic units terminidan foydalanishadi. G`arb olimlari esa Idioms terminidan foydalanishadi, lekin rus lingvistikasida keltirilgan izohlarga ko`ra u frazeologik birliklarning bir bo`lagi xolos.

Rus olimi V.Vinogradov frazeologik birliklarni ma`nosiga asoslanib semantik jihatdan klassifikatsiya qiladi va ularni 3 turga bo`ladi:

1. **Phraseological fusions** bular birliklar bo`lib, so`z tarkibining ma`nosidan umumiy ma`noni xulosa qilib bo`lmaydi. Frazeologik fusiylarning ma`nosi til rivojlanishining hozirgi bosqichida motivatsiyasiz hisoblanadi.

red tape (byurokratlar),

a mare's nest (chalg`itish),

2. **Phrasological unities** bular ifoda bo`lib, so`zlar tarkibidan ma`noni xulosa qilish mumkin. Umumiy ma`no ko`chma ma`noga asoslangan bo`ladi.

to show one's teeth (nazarga ilmaslik),

to stand to one's guns (birovning fikriga qarshi turish).

Ular motivatsiyali ifodalardir.

3. **Phraseological collocations** bular frazeologik birikmalar bo`lib, nafaqat motivatsiyalangan balki so`zlardan biri to`g`ri ma`noda qo`llanilgani holda boshqasi ko`chma ma`nod abo`ladi.

to meet requirement(talab bilan tanishmoq)

to attain success(muvaqqafiyatga erishmoq)

Frazeologik birliklarning bu guruhida ba`zi qismlar ko`chma ma`noni yo`qotmasligi mumkin. Masalan: *to meet the needs, to meet the demand, to meet the necessity; to have success, to lose success* (talab qilmoq, taklif qilmoq, majbur

bo'limoq). Bu birikmalar sinonim emas va umumiy ma'no o'zgaradi lekin asosiy so'z ma'nosi o'zgarmaydi.

Professor A.I. Smirnitsky frazeologik birliklarni tuzilish jihatdan klassifikatsiya qiladi va ularni so'z ekvivalenti sifatida vazifa bajaruvchi yuqori idiomatic so'z tasvirlovchilar deb, ularning semantik va grammatik jihatdan xarakterlaydi. U mavjud frazalarni 3 turini taklif qiladi:

1. **traditional phrases**-an'anaviy frazalar (*nice distinction, rough sketch*);
2. **phraseological combinations** – frazeologik tuzilmalar (*to fall in love, to get up*);
3. **idioms** – idiomalar (*to wash one's dirty linen in public*);

ikkinchi guruhni yana ikki kichik guruhga ajratadi:

1. **one-top phraseological units**, ya'ni bitta asosiy so'zdan tashkil topadi;
 1. **fe'l- ravishli**: *to give up, to bring up, to try out, to look up, to drop in, etc.*
 2. **to be ko'makchili**: *to be surprised, to be up to, etc.*
 3. **predlogli birikmalar**: *by heart.*

2. **two-top phraseological units**, ya'ni qo'shma so'zlardan tashkil topgan.

Bu birliklar otga, fe'l yoki ravishga teng kelish mumkin:

brains trust, white elephant, blind alley;

to know the ropes, to take place;

ups and downs, rough and ready, flat as a pancake;

every other day.

Prof. Kunin esa frazeologik birliklar, frazeomatik birliklar va aralash holatlarni farqlab beradi. Frazeologik birliklar to'liq yoki qisman ma'nosini o'zgartiradi, frazeomatik birliklar esa uning adabiy ma'nosida qo'llaniladi. Ular ikkalasi frazeologik turg'unligiga qarab xarakterlanadi qaysiki, erkin frazalar va qo'shma so'zlardan farq qiladi.

Prof. A.V. Kunin quyidagi jihatlarga ko'ra turg'unlik nazriyasini rivojlantirdi:

1. **stability of usage-** nutqda yaratilmagan nutqda tayyor holda qayta ishlangan frazeologik birlik;
2. **lexical stability-** frazeologik variantlashishda qisman yoki umuman takrorlanmas frazeologik birliklar tarkibidir.

Quyidagi klassifikatsiyaga ko`ra frazalar variantlashyapti va ma`nosi o`zgarmayapti

Lexical: *a skeleton in the cupboard / closet (oilaviy sir), a blind pig / tiger* (alkogolni noqonuniy sotish);

Grammatical: *to be in deep water / waters* (qiyin vaziyatda bo`lish), *a stony heart – a heart of stone* (shafqatsiz tabiat);

Positional: *a square peg in a round hole – a round peg in a square hole* (qobilyati yoki xarakteriga mos bo`lmagan vaziyatdagi odam), *to dot the i's and cross the t's – to cross one's t's and dot one's i's* (hamma dalillar to`g`riligini ta`minlamoq);

Quantitative: *Tom, Dick and Harry – every Tom, Dick and Harry* (kimdir va hamma);

Mixed variants: *raise/stir up the nest of hornets' nest about one's ears – to arouse/stir up the nest of hornets* (qovog`arini uyini vayron qilish).

3. **Semantic stability** frazeologik birliklarning leksik turgunligiga asoslangan.

Ba`zi o`zgarishlarga qaramay frazaning ma`nosi saqlab qolinadi. Bu kuchli, kuchsiz, aniq yoki noaniq bo`lishi mumkin.

4. **Syntactic stability.**

Bunda frazeologik birliklarning xarakter xususiyatlari quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Tayyor qilingan nusxasi;
2. Structural bo`linishi;
3. Morfologikal beqarorligi;
4. Leksik tarkibning o`zgarmasligi;
5. Semantic birlik;
6. Sintaktik moslashuvchanlik.

Prof. A.V. Kunin frazeologik birliklarga nisbatan shunday ta`rif beradi:
“Frazeologik birlik to`liq yoki qisman ma`nosi o`zgargan turg`un so`z guruhidir”.

Frazeologik birliklar struktural-semantik xarakteristikasi orqali aniqlangan muloqotdagi funksiyasiga ko`ra to`rtta kichik sinflarga bo`linadi.

Amaliy klassifikatsiya

1. Qaratqich frazeologik birliklar, ma`lum bir tushunchalarning o`rnini egallaydi: *a bull in a china shop(qo`pol odam)*;
2. Qaratqich – kirishimli frazeologik birliklar, aniq nisbatda ma`lum bir tushunchalarning o`rnini egallaydi va majhultuzlashda foydalanilishi mumkin: *to cross the Rubicon – the Rubicon is crossed!*
3. Undovli frazeologik birliklar, undov tushunchalar o`rnida keladi : *a pretty (nice) kettle of fish! For crying out loud!*
4. Kommunikative phraseologik birliklar, gaplar (maqollar yoki aytishmalar) o`rnida qo`llaniladi: *Still waters run deep. The world is a nice place.*

Kommunikative frazeologik biriklar biror vaziyatni ifodalaydi:

Maqol so`zlar to`plami bo`lib, maslahat beruvchi yoki umumiy haqiqatlarni bildiruvchi gap yoki frazalar:

Idleness is the root of all evil- Bekochidan xudo bezor;

A penny saved is a penny gained- Oz oz bo`lib daryo bo`lur;

The pen is mightier than the sword – So`z qilichdan kuchli;

Ask no questions, hear no lies – Ko`p gap boshga balo;

Silence is something an answer – Jimlik alomati rizo.

Yuqoridagi klassifikatsiyalardan ko`rinib turibdiki, barcha ko`chma ma`noda ishlatilib, nutqqa tayyor holda kirgan gap va birikmalar frazeologik birliklar hisoblanadi va barcha turg`un birliklar, maqol va hikmatli so`zlar, frazalar va idiomalar barchasini o`z ichiga oladi. Har bir tilning frazeologik qatlami o`sha til millatining madaniyati, urf- odat va yashash tarzidan kelib chiqib shakllanadi va o`z tilini boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка.–М. 1986.
2. Narimonova Z. Frazеologik iboralarning tarjimasі haqida.-T.:O'zMU to'plami. 2007.
3. Oxford dictionary of idioms Published in the United States by Oxford University Press Inc., New York © Oxford University Press 1999, 2004
4. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1982.

<http://www.academia.edu>

<http://www.phrase.com>